

Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'rsatkichlari bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi  
(0069-24-son SanQvaN)ga

11-ILOVA

### WBGT – indeksini hisoblash

1. WBGT – indeksini hisoblash usuli mikroiklim harorati, havo namligi, issiqlik nurlanishi jadalligi, shuningdek metabolizm darajasini tashkil qiluvchi ko'rsatkichlarni birgalikda ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda inson organizmiga tashqi issiqlik yuklamasini baholashga asoslangan bo'ladi.

2. WBGT-indeksi binodan tashqarida quyosh radiatsiyasi yuklamasida yoki binoni ichida issiqlik nurlanishida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$WBGT = 0.7 t_{nam} + 0.1 t_q + 0.2 t_{sh}$$

Binoning ichida (issiqlik nurlanishi bo'lmaganda) yoki tashqaridan quyosh yuklamasi bo'lmaganda esa quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$WBGT = 0.7 t_{nam} + 0.3 t_{sh}$$

bu yerda:  $t_{nam}$  – nam termometr harorati,  $t_q$  – quruq termometr harorati va  $t_{sh}$  – sharli termometr harorati.

3. Agarda ish smenasi davomida atrof-muhit ko'rsatkichlari farq qilsa, WBGT-indeksi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$WBGT = \frac{WBGT_b + 2WBGT_q + WBGT_t}{4},$$

bu yerda,  $WBGT_b$  – bosh darajasida o'lchangan WBGT-indeksi ko'rsatkichi,  $WBGT_q$  – qorin darajasida o'lchangan WBGT-indeksi ko'rsatkichi va  $WBGT_t$  – to'piq darajasida o'lchangan WBGT-indeksi ko'rsatkichi.

4. WBGT-indeksini tez aniqlash uchun maksimal issiqlik ta'siri nuqtasida ko'rsatkichni o'lchash yetarli bo'ladi. WBGT-indeksini hisoblab chiqish uchun zarur ko'rsatkichlar o'zgaruvchan bo'lsa, ularning smenadagi o'rtacha miqdori aniqlanishi zarur.